

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

GEOGRAFIK NOMLARNING EKOLOGIK FUNKSIYALARINI TADQIQ ETISH USULLARI

METHODS OF STUDYING ECOLOGICAL FUNCTIONS OF GEOGRAPHICAL NAMES

МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФУНКЦИЙ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ НАЗВАНИЙ

Ahmadaliyev Yusufjon Ismoilovich¹, Madraximov Ablazbek Erkinjon o'g'li¹Ahmadaliyev Yusufjon Ismoilovich

– Farg'ona davlat universiteti professori, geografiya fanlari doktori

²Madraximov Ablazbek Erkinjon o'g'li

– Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada toponimikada qo'llaniladigan tadqiqot bosqichlari va usullari haqida so'z yuritiladi, shuningdek toponimikada yangi yo'nalish ekologik toponimlarni tadqiq etishning predmetlararo mohiyati va o'ziga xos usullari ko'rsatib o'tilgan va tahlil etilgan.

Аннотация

В данной статье рассказывается об этапах исследования и методах, применяемых в топонимике, а также показывается и анализируется междисциплинарная сущность и конкретные методы исследования экологических топонимов, нового направления в топонимике.

Abstract

This article talks about the stages and methods of research used in toponymy, and also shows and analyzes the interdisciplinary essence and specific methods of researching ecological toponyms, a new direction in toponymy.

Kalit so'zlar: *Statsionar, kameral, dala ekspeditsiyasi, geografik terminlar, tarixiy usul, topoformantlar, statistik usul, etimologik tahlil*

Ключевые слова: *Стационарные, камеральные, полевые экспедиции, географические термины, исторический метод, топоформанты, статистический метод, этимологический анализ.*

Key words: *Stationary, cameral, field expedition, geographical terms, historical method, topoformants, statistical method, etymological analysis*

KIRISH

Predmetlararo mohiyatga ega bo'lgan fanlar va ilmiy yo'nalishlarda olib borilayotgan izlanishlarda bitta taqiqot usulidan foydalanish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Shunday mazmunga ega bo'lgan toponimika fanida ham turli xil tadqiqot usullaridan foydalanilsa ijobiy natijaga erishish, toponimlarning etimologik jihatdan to'g'ri bo'lgan ma'lumotlar bazasini yaratish mumkin bo'ladi. Geografik nomlarni yoki ma'lum hudud toponimlarini ekologik jihatlarini ilmiy tomondan o'rganish tadqiqotchidan turli xil usullardan foydalanishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Geografik nomlarni o'rganish usullari haqida E.M.Murzayev, X.A.Xanmagomedov, V.A.Juchkevich, Y.M.Pospelov, A.I.Popov, N.V.Kolutskov, o'zbek olimlaridan, X.X.Xasanov, S.Qorayev, T.Nafasov, Z.Do'simov, T.Enazarov, Q.Hakimov, M.Mirakmalov, Y.Ahmadaliyev kabi olimlar tadqiqot olib borganlar [1; 24-6].

Toponimikaning tadqiqot usullaridan uch bosqichda olib boriladi, bular statsionar, dala va kameral bosqichlardir.

Statsionar sharoitda joy nomlarini o'rganayotgan tadqiqotchi kuzatishlarini turg'un tarzda, ya'ni kutubxona, arxiv, muzeylarda, tadqiqot muassasalarida, boshqa mutaxassislar bilan bog'langan holda amalga oshiradi. Ushbu bosqich mobaynida tanlangan hududning tabiiy-geografik sharoiti, ijtimoiy-iqtisodiy holati, tarixi, etnografik holati o'rganilishi bilan birgalikda asosiy e'tibor toponimik jihatlariga qaratiladi. Bunda dastlab tanlangan hudud uchun toponimlarning maxsus ro'yxati tuzilib, ularning etimologik mazmuni, shakllanish shart-sharoitlari yozib boriladi. Ayrim mazmun-mohiyati noma'lum, o'zak tuzilishi g'aliz bo'lgan toponimlar esa alohida tarzda qayd etiladi. Mazmunan noaniq o'zakka ega bo'lgan joy nomlarining etimologik tahlilini toponimikaga oid maxsus lug'atlar, monografik asarlar, ba'zan ilmiy-ommabop adabiyotlar yordamida amalga oshirish mumkin [6; 70-71-6]. Aynan mana shu bosqichda tadqiqotchi tanlab olingan hududdagi

GEOGRAFIYA

toponimlar haqida aniq ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Chunki o'rganilayotgan hududning tabiiy-geografik sharoiti, tarixi, etnografik holati, geografik nomga sabab bo'lgan aholining ijtimoiy holatini o'rganish toponimlarning etimologik mazmun-mohiyatini to'g'ri aniqlashga yodam beradi.

Dala sharoitida olib boriladigan tadqiqotlar toponimlarni tadqiq etishda yanada muhim ro'l o'ynaydi. Geografik obyektning nomlanishiga asos bo'lgan tabiiy, ijtimoiy, tarixiy voqea-hodisalar to'g'risida tadqiqotchi aynan obyekt bilan joyida tanishish orqali geografik nom to'g'risida ayrim xulosalarni to'g'ri aniqlash imkonini beradi. Aynan toponimik tadqiqotlarda dala ekspeditsiyalari yordamida turli xil sabab bilan yo'q bo'lib ketayotgan, lekin muhim hisoblangan mikrotoponimlar to'g'risida ma'lumot to'plash imkoniyati tug'iladi [2; 24-6].

Statsionar va dala ishlari mobaynida to'plangan barcha ilmiy dalillarni qayta ishlash, to'ldirish, tartib berish, statistik tahlil qilish bosqichi kameral bosqich deb ataladi. Bu ishlar dala qidiruv ishlari tugagandan so'ng, ilmiy muassasa, kutubxona turg'un tarzda kechadi. Kameral bosqich davrida ham tadqiqotchi kutubxonalar xizmatidan foydalangan holda, lozim bo'lsa tajribali mutaxassislar maslahati asosida ish yuritishi mumkin. Dalada to'plangan ma'lumotlar matn, jadval, xarita, diagramma va hokazolar tarzida tartibga keltirilgach, ularni yanada ixchamlashtirish, soddalashtirish, ilmiy holga keltirish uchun toponimlar kadastri elektron katalogini tuzish maqsadga muvofiqdir. [6; 77-78-6].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Toponimlarning geografiya uchun ahamiyati beqiyosdir. Geografik nomlar har bir mintaqaning tarixiy davrida yuzaga keladi va voqea-hodisalarning guvohi hisoblanadi. Geografik nomlar kartaning asosiy elementi bo'lib, hududiy bog'liqligi, toponim adresni, manzilni ko'rsatib berishi bilan ajralib turadi. Geografik nomlar ma'lum hududning o'zlashtirilishi, xo'jalikda foydalanilishi, aholisining tarqalishi haqida hikoya qiladi. Toponimlarda ma'lum mintaqaning tabiiy sharoiti va resurslari o'z aksini topadi, qadimda qanaday landshaft turlari tarqalganligi va toponimlar orqali ana shu landshaftlarni tiklash imkoniyati yuzaga keladi. Geografik terminlarni bilish orqali toponimlarning ilmiy etimologiyasini ochib berish mumkin bo'ladi. Shu nuqtai nazardan toponimik tadqiqotlarni geografiya, tilshunoslik, tarix fanlari doirasida joy nomlarini ekologik jihatlarini umumlashtirib ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Shu bois, har bir fan uchun xos bo'lgan tadqiqot usullaridan foydalanish tadqiqotlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [7; 21-6].

Toponim va geografik nomlarning uzoq vaqt saqlanib turish xususiyatlaridan ma'lum hududning ekologik holatini o'zgarishi haqida ma'lumot (informatsiya) olish imkoniyati yuzga keladi. Ekologik toponimlar orqali ma'lum mintaqada hududida mavjud bo'lgan o'simlik va hayvonot dunyosini qadimiy tarqalgan areallarini aniqlash va tiklash mumkin bo'ladi. O'simlik nomlarining ekologik tadqiqotlarda ahamiyatli jihati shundaki, ular toponimikaning asosan pozitivlik qonuniyati asosida qo'yilgan bo'ladi. Masalan Chilonzor toponimi Toshkent shahridagi daha nomi bo'lib, u yerda gilon (jiyda turi) o'sganligini dalolat beradi. Bundan tashqari hayvonot dunyosi nomlari bilan tarqalgan toponimlarni ham ekologik jihatini tadqiq etish mumkin. O'zbekistonda ilk bor ekologik funksiyani bajaruvchi toponimlar haqida S.Qorayev 1970-yilda nashr etilgan "Geografik nomlar ma'nosini bilasizmi" nomli asarida fikr bildirgan edi Olim joylarga nom berishga asos bo'lgan o'simlik yoki hayvonlar yo'q bo'lib ketganini, biroq joy nomlari saqlanib qolganligini yozadi [4]. Mazkur asarda berilgan nomlarning tahliliga ekologik tamoyillar asosida yondashilsa, tabiiy-antropogen omillar ta'sirida yo'q bo'lib ketgan hayvonot va o'simliklar haqida malumot olish mumkin bo'ladi. Masalan, yuqoridagi asarda qachonlardir mamlakatimiz hududida yashagan Qulon, (Qulonsoy, Qulonboshi, Qulontepa toponimlaridan), Bulon (Bulon, Bulonti toponimlaridan), Sirtlon (Do'lta, Do'ltali toponimlaridan), Yo'lbars (Palangdara toponimidan) kabi hayvonlar yurtimizda va O'rta Osiyoda yashaganligi, lekin hozirda yo'q bo'lib ketganligi aytiladi.

Toponimik tadqiqotlarni, avvalo, turli xil geografik usullardan foydalanib tadqiq etish ijobiy natijalarga olib keladi. Chunki joy nomlarida geografik muhitning xususiyatlari – relyef shakllari, o'simlik va hayvon nomlari aks etadi. Aynan ushbu sohada o'tkaziladigan tadqiqotlarda quyidagi umumgeografik usullardan: geografik terminlarni o'rganish, kartografik va dala ekspeditsiyalari o'tkazish usullaridan foydalanish mumkin. Geografik joy nomlari (toponimlar) tarkibida qatnashib, ikki va undan ortiq so'zlardan iborat bo'ladi va ular orqali obyektning ifodalagan so'zlar (turdosh otlar) geografik terminlar deb yuritiladi. Ba'zi ilmiy adabiyotlar toponimik indikator deb ham ataladi [1; 25-6].

Geografik terminlar tarkibida oddiy xalq soʻzlari koʻp uchraydi va geografik obyektning turini bildiradi. Bunday soʻzlar, yaʼni geografik terminlar barcha xalq tillarida uchraydi. Geografik terminlar toʻgʻrisida H.Hasanovning quyidagi fikrlariga eʼtibor qarataylik, "...Bordi-yu oʻntacha asosiy tilni biladigan kishi xaritada nomlarni shu tillarga tarjima qilib oʻqisa, aksari shahar, togʻ, daryo va koʻllarning nomlari deyarli bir maʼnoda ekanini koʻrib hafsalasi pir boʻlar edi", –degan edi. Darhaqiqat ohirida shtat, burg, taun, pur kabi soʻzlar obod, kent, qoʻshilgan soʻzlarning oʻzginasi ekan. Rio, missi, river, xe, reka soʻzlari esa "daryo" demakdir. Geografik terminlar va nomlar tabiatdan foydalanish jarayonida salbiy oʻzgarishlar boʻlishi mumkin boʻlgan ekologik toponimlar haqida ham maʼlumot berishi mumkin. Masalan, tuproqning shoʻrlanishi va gidrologik holat haqida maʼlumot beruvchi toponimlarga Shoʻrchi, Shoʻrqishloq, Taqir, Shoʻrsuv kabi nomlar kiradi [2].

Kartografik usul ham toponimik tadqiqotlarda keng qoʻllaniladi. Uning boshqa usullardan farqi va afzalligi shundaki, nomlarning oʻrganilganlik darajasi, tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy hodisa va obyektlar bilan aloqadorligi, takroriyli va zichligini maydon birligiga aniq koʻrsatish imkonini beradi. Toponimik maʼlumotlarni aniqlash turli kartografik manbalardan foydalanishni talab qiladi. Turli davrdagi xaritalar yordamida tabiiy hodisa va jarayonlarning rivojlanish bosqichlarini toponimiy maʼlumotlari asosida kuzatish va aniqlash mumkin. Kartografik usul toponimistdan oʻrganilgan umumiy materiallardan aniq xulosa chiqarishni talab qiladi. Shu sababdan xaritada maʼlumotlar matnga nisbatan yaqqol va aniq koʻzga tashlanadi hamda toponimik hodisa va qonuniyatlarni tushunish imkonini beradi. Toponimik xaritalar tuzish, ulardan foydalanish, umuman kartografik usulning imkoniyatlarini rus olimi Y.M.Pospelov ilmiy jihatdan har tomonlama oʻrgangan. Y.M.Pospelov ushbu usul yordamida toponimik qoʻshimchalarning hudud boʻyicha tarqalishi, muayyan turdagi nomlarning tarqalish areallari, geografik nomlarning maydon boʻyicha zichligi va takrorlanishini aniq misollarda koʻrsatib bergan. Zamonaviy axborot va GAT-texnologiyalarni qoʻllagan holda toponimik maʼlumotlarni oʻzida jamlagan xaritalarni tuzish va ulardan samarali foydalanish, geografik nomlarning elektron bazasini yaratishda va yangi toponimik xaritalarni tuzishda katta natija beradi [1; 28-6].

Geografik nomlarning ekologik jihatlarini tarixiy usullardan foydalanib ham tadqiq etish mumkin. Tarixiy tahlil usulidan foydalanib toponimning paydo boʻlgan davri, uning evolyutsiyasi va transformatsiyasi hamda yangi geografik nomning paydo boʻlishiga asos boʻlgan ijtimoiy muhitni aniqlash mumkin. Shu sababdan har qanday toponimik faktning tadqiq qilishda, aniq tarixiy voqelikni hisobga olib ish koʻrish, ulardan samarali foydalanish yaxshi natija beradi. Koʻpincha geografik nomlarning semantikasi oʻziga xos xususiyatlarga ega, ular uzoq tarixiy davr davomida shakllangan boʻlib, insonning tabiatga boʻlgan munosabatini aks ettiradi. Nom doimo ijtimoiy ehtiyoj tufayli paydo boʻlganligi bois, hattoki, tabiiy-geografik terminlar ham toponimiyada geografik obyektning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyatini belgilaydi. Har bir geografik nom bu til orqali ifodalangan ixcham tarix, uning asosi muayyan tarixiy davrda yaratilgan. Tarixiy usul yordamida tadqiqotchi joy nomining geografik alomatlariga yana ham jiddiy eʼtibor berishi mumkin [2; 25-6].

Toponimik tadqiqotlarda tarixiy usulni qoʻllash tarafdori boʻlgan A.I.Popov oʻzining tadqiqotlarida aniq tarixiy sharoit va tarixiy manbalardan xabardor boʻlmasdan turib, geografik nomning kelib chiqishi haqida toʻgʻri fikr bildirish mumkin emasligini bir necha bor taʼkidlagan. Toponimlar aniq bir tarixiy sharoitda paydo boʻladi va kelib chiqishi jamiyat hayoti, hududda yashayotgan yoki qachonlardir yashagan xalqlar tili bilan chambarchas bogʻliq [8].

Geografik nomlarni hududiy tadqiq etish va formantlarga boʻlib oʻrganishda olimlar tomonidan lingvistik usullar (topoformantlar asosida, etimologik, grammatik tuzilishi) keng qoʻllaniladi. Nomlarning lisoniy tarkibi, soʻz va qoʻshimchalari, ularning maʼnolari va birikuvi, nomlanishga asos boʻlgan ijtimoiy-lisoniy omillar oʻsha davr voqeligi bilan baholanishi, izohlanishi va tadqiq qilinishi lozim. Maʼlum hududni topoformantlar yordamida, yaʼni nomlar tarkibida tez-tez takrorlanadigan old yoki oxirgi qoʻshimchalarning oʻxshashligiga qarab ham tadqiq qilish mumkin. Masalan, toponimikada –zor affiksi bilan ifodalangan nomlar maʼlum oʻsimlik turini oʻrganilayotgan hududda koʻp tarqalganligini bildiradi. Masalan, Anorzor, Anjirzor, Bodomzor, Chilonzor, Yongʻoqzor, Yulgʻunzor kabi qishloq va mahallalar shu usulda yasalgan. Toponimlarni topoformantlar yordamida oʻrganish keyingi chorak asrda katta ahamiyat kasb etdi [7].

Toponimik tadqiqotlar natijasida qoʻlga kiritilgan maʼlumotlarni qayta ishlashda statistik usuldan foydalanib yaxshi natijalarga erishish mumkin. Bu usul yordamida maʼlum hududdagi

GEOGRAFIYA

geografik nomlarning sonini aniqlash, ularni boshqa hududdagi nomlar bilan taqqoslash, kelib chiqishi, qaysi tilga mansubligini foiz nisbatlarini o'rganish imkoniyati mavjud. Y.M.Pospelov, Y.I.Ahmadaliyev, M.T.Mirakmalov statistik usuldan samarali foydalanganlar. Statistik ma'lumotlar tadqiqotchini mintaqa toponimlari haqidagi tasavvurini konkretlashtiradi va aniq xulosa chiqarishiga ko'maklashadi. Toponimikaga oid kartografik ma'lumotlarni tahlil etishda statistik usulni qo'llash yaxshi samara beradi [1,5].

Joy nomlarini ekologik jihatlarini tadqiq etayotganda rayonlashtirish usulidan foydalanish mumkin. Bu usul yordamida geografik joy nomlari tuzilishi, kelib chiqishiga ko'ra turli toponimik rayonlarga ajratiladi. Bundan tashqari, muayyan toponimik rayonlar bo'yicha bir xil topoformentlar yordamida vujudga kelgan geografik joy nomlari kichik rayonlarga ajratib ko'rsatiladi.

Har qanday geografik tadqiqotni rayonlashtirish usulisiz tasavvur qilish qiyin. Rayon – bu hudud (geotoriya) o'zini shakllantiruvchi elementlarning yig'indisi bo'yicha boshqa hududlardan bir xilligi, tarkibiy elementlarning o'zaro aloqadorligi, bir butunligi bilan yaqqol namoyon bo'ladigan hudud (geotoriya), bunda birlik – bu hudud rivojlanishining obyektiv sharti va qonuniy natijasidir. Toponimik rayonlar tabiiy-geografik va iqtisodiy-geografik rayonlar kabi tabiatda aynan takrorlanmaydigan muayyan bir hududda joylashadi va alohida geografik nomga ega bo'ladi. Shu bilan birga, toponimik rayonlarning bir-birlariga o'xshashlik jihatlari ham mavjud bo'lishi tabiiy, ammo ular o'zlarining asosiy muhim xususiyatlari bilan farqlanib turadi. Taniqli toponimist, geograf olim V.A.Juchkevich "toponimiyaning hududiy xususiyatini aniqlashda birinchi navbatda, rayonlashtirish tamoyillari masalalari paydo bo'ladi", – deb yozgan edi. Toponimik rayonlashtirishning o'ziga xos prinsiplari mavjud bo'lib, ular ajratiladigan rayonlarning obyektiv hududiy asosda bo'linishiga amal qilishdan iboratdir. Toponimik rayonlashtirish asosan hududiylik, tarixiy-genetik, komplekslilik, nisbiy bir xillik tamoyillari asosida olib boriladi [3].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, geografik nomlarni ekologik jihatlarini o'rganishda tadqiqot mazmuni va maqsadidan kelib chiqib tadqiqotlarni statsionar, dala va kameral bosqichlarda geografik, tarixiy va lingvistik tadqiqot usullaridan foydalanish ijobiy natija beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ахмадалиев Ю.И., Отакулов П.С. Экологик топонимлар. Фарғона:2021. 188 бет.
2. Ахмадалиев Ю.И. Топонимика ва географик терминшунослик. Фарғона, 2018.-118 б.
3. Балтабаев О.О. Қорақалпоғистон Республикаси ойконимларининг ижтимоий-географик таҳлили г.ф.ф.д (PhD)... дисс. – С: 2022. –217
4. Қораев С. Географик номлар маъносини биласизми?-Т.:1970.-190 б.
5. Миракмалов М.Т. Ўзбекистон топонимларининг табиий географик хусусиятлари ва географик лингвистика. Г.ф.д. (DSc)... дисс. автореферат. – Т.: 2020. – 55 б.
6. Низомов А., Рахимова Г., Расулова Н. Топонимика. – Т.: Sharq, 2013. – 120 б.
7. Отакулов П.С. Географик номларнинг шаклланишида минтақавий ижтимоий – экологик хусусиятлар таъсири (Фарғона водийси мисолида).г.ф.ф.д (PhD)... дисс. – С.: 2020. – 172 б.
8. Попов А.И. Об историческом методе топонимических исследований / А.И. Попов // Развитие методов топоним.исследований : сб. ст./ отв. Ред. Е.М. Пospelov. – М., 1970. – С. 25–38.